


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**BALIQCILIK XO'JALIKLARIDA VETERINARIYA
SANITARIYA TADBIRLARI**

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	840000 - Veterinariya
Mutaxassislik:	70840108 - Baliq kasalliklari

Samarqand 2024

Fan/modul kodi BXVST1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari	90	90	180
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistrlarda baliqlarda kasallik chaqiruvchi yoki baliqchilik mahsulot, xom ashyo va ozuqalarni yaroqsiz holga keltiruvchi patogen yoki shartli patogen mikroorganizmlar, ektoparazitlar, gelmintlar va kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari kompleksida samarali veterinariya-sanitariya tadbirlarini qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariyasi, baliqlarni yuqumli va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilaridan asrashga va ularni baliqchilik xo'jaliklariga kirishdan yoki aksincha chiqarishdan himoyalashga, veterinariya sanitariya tadbirlarini dezinfektantlar va insektoakaratsid preparatlarni tanlanishi va yangilarini yaratilishi, optimal texnologiyalarini qo'llash bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-modul. Kirish. Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari fani va uning rivojlanish tarixi</p> <p>1-mavzu. Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari fani va uning rivojlanish tarixi</p> <p>“Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari” fanining mazmuni, maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanining rivojlanish tarixi. Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari fanining tadqiqot ob'yektlari.</p> <p>“Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari”da qarshi kasalliklarga kurashish dezinfektsiyalashda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar.</p> <p>2-modul. Baliqchilik xo'jaliklarini patogen va shartli patogen mikroorganizmlar bilan ifloslanishi</p>			

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, “parranda, baliq, asalari va mo'ynali xayvonlar kasalliklari” kafedrası assistenti, v.f.f.d. (PhD), F.E. Kurbanov tomonidan tayyorlangan
70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanning o'quv dasturiga
TAQRIZ**

Dastur 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy t'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari ro'yxati ko'rsatilgan.


O'zbekiston Respublikasi suv havzalaridagi baliqlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarining umumiy patologiyasining asoslari, kasalliklarni oldini olish, ularni davolash asoslari keltirilgan. epizootologiyasi, qo'zg'atuvchilari, ularning bioekologik xususiyatlari, klinik belgilari, differentsiatsiyasi, davolash va profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda ishlab chiqarish hajmini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinish, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistrarga kasalliklar etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olishda zamonaviy usullar va texnologiyalar, kasalliklarni oldini olishning zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali baliqlar maxsuldorligi va reprodktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Dasturni chop etishga tavsiya etaman.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti
“Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya”
kafedrası dotsenti, b.f.n.**

A.M. Vaxidova



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "parranda, baliq, asalari va mo'ynali xayvonlar kasalliklari" kafedrası assistenti, v.f.f.d. (PhD), F.E. Kurbanov tomonidan tayyorlangan
70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanning o'quv dasturiga
TAQRIZ**

Dastur 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy t'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari ro'yxati ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi suv havzalaridagi baliqlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarining umumiy patologiyasining asoslari, kasalliklarni oldini olish, ularni davolash asoslari keltirilgan. epizootologiyasi, qo'zg'atuvchilari, ularning bioekologik xususiyatlari, klinik belgilari, differentsiatsiyasi, davolash va profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda ishlab chiqarish hajmini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qililib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistrarga kasalliklar etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olishda zamonaviy usullar va texnologiyalar, kasalliklarni oldini olishning zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali baliqlar maxsuldorligi va reproguktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Dasturni chop etishga tavsiya etaman.

Toshkent davlat agrar universiteti
Umumiy zootexniya va
veterinariya kafedrası professori



M.A. Yuldashov
M.A. Yuldashov

2023 17.12.2023
2023 17.12.2023

2-3-mavzu. Baliqchilik xo'jaliklarini patogen va shartli patogen mikroorganizmlar bilan ifloslanishi

Yuqumli kasalliklarning uzatuvchi (tashuvchi) omillar, patogen mikroorganizmlarning tashqi muhitda yuqori chidamli va chidamliligi past bo'lgan guruhlarini o'rganishning ahamiyati. Yuqumli va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilarining tarqalish yo'llarining xilma-xilligi. Tashqi muhitda eng ko'p uchrab turadigan baliqlarning yuqumli kasalliklarining qo'zg'atuvchilarini tahlili. Mikrob tashuvchanlik va uning oqibatida tashqi muhitga mikroorganizmlarni tarqalishining xo'jalikning veterinariya – sanitariya holatiga ta'siri

3-modul. Baliqchilik ob'yektlarini zararsizlantirish uchun dezinfektsiyalovchi vositalar

4-5-mavzu. Baliqchilik ob'yektlarini zararsizlantirish uchun dezinfektsiyalovchi vositalar

Tashqi muhitning sanatsiya qilishda kimyoviy, fizik va biologik dezinfektsiya vositalarining qo'llanilishi. Kimyoviy dezinfektsiya vositalar: ishqorlar, kislotalar, xlorfaol preparatlar va boshqa guruhlarining mikroorganizmlar xujayrasiga ta'siri, bakterisid va bakteriostatik ta'sirlarni ahamiyati. Kimyoviy vositalar eritmalarining konsentratsiyasi, harorati va ekspozitsiyasi vaqtining ularning kuchiga ta'siri, kimyoviy dezinfektsiya vositalari ta'sirida mikrob xujayrasida kechadigan jarayonlarni tushunishni nazariy va amaliy ahamiyati. Dezinfektsiya vositalariga qo'yiladigan talablar, fizik va biologik dezinfektsiyalashning ahamiyati.

4-modul. Baliqchilik xo'jaliklarida ishlatiladigan veterinariya sanitariya texnikalari

6-mavzu. Baliqchilik xo'jaliklarida ishlatiladigan veterinariya sanitariya texnikalari

Dezinfeksion texnikalarga qo'yiladigan eng asosiy talablar. Aerosol yo'li bilan dezinfektsiyalash uchun maxsus dezinfektsiya mashinalari. Apparatlarining ishlash prinsipi va qo'llanilishi. Maxsus avtomashinalar yordamida o'tkaziladigan tadbirlarning turlari va ular bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.

5-modul. Baliqchilik xo'jaliklari dezinfektsiyasi

7-8-mavzu. Baliqchilik xo'jaliklari dezinfektsiyasi

Dezinfektsiya ta'limotining mohiyati. Dezinfektsiya (zararsizlantirish) ni yuqumsizlashtirishdan va sterillashdan farqlash. Dezinfektsiya o'tkazish uchun dastlabki tayyorgarlik bosqichi hisoblangan mexanik tozalashning ahamiyati. Dezinfektsiya vositalarini eritmalar yoki aerosollar holatida qo'llashning afzalliklari. Profilaktik dezinfektsiyani o'tkazish tartibi va muddatlari. Majburiy dezinfektsiyaning turlari, o'tkazish tartibi va muddatlari. Past haroratda

	dezinfektsiyalashning o'ziga xos jihatlari. Dezinfektsiya sifatini baholash.
	6-modul. Baliqchilik havzalarida bo'g'imoyoqlilar va gelmintlarga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari.
	9-10-mavzu. Baliqchilik havzalarida bo'g'imoyoqlilar va gelmintlarga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
	Chivinlar tomonidan tarqatiladigan baliqlarning yuqumli va invazion kasalliklari. Chivinlarga qarshi kurash profilaktik (asosiy) va qiruvchi (yordamchi) usullari. Krustasenoziarlar tomonidan tarqatiladigan yuqumli va invazion kasalliklar. Baliqlar kanalariga qarshi kurashish usullari, qo'llaniladigan dezinfektsiya vositalari.
	7-modul. Suv havzalarining veterinariya - sanitariyasi
	11- mavzu. Suv havzalarining veterinariya - sanitariyasi
	Suv havzalaridagi har xil turdagi tirik mikroorganizmlar haqida tushuncha. Suv havzalarini zararsizlantirish. Suv havzalarini turli chuqurliklarda dezinfektsiyalash. Suv havzalarini dezinfektsiyalashda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar. Insonlarning tabiatni o'zgartirishga bo'lgan faol harakatlarining (tuproqqa o'g'itlar solish, sug'orish, quritish) mikroblar biotsenozini o'zgartirishdagi o'rni.
	8-modul. Chavaqlarni parvarishlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari
	12-mavzu. Chavaqlarni parvarishlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari
	Chavaqlarni parvarishlash sexida zoogigiyenik parametrlarni bajarilishiga ularni saqlash normativlariga va profilaktik hamda veterinariya sanitariya tadbirlarining bajarilishi. Chavaqlarni parvarishlash sexida qarshi kasalliklarga kurashish dezinfektsiyalashda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar. Chavaqlarni parvarishlash sexida dezinfektsiya vositalariga qo'yiladigan talablar. Fizik va biologik dezinfektsiyalashning ahamiyati.
	9-modul. Baliq go'shtini qayta ishlash korxonalarining veterinariya sanitariyasi
	13- mavzu. Baliq go'shtini qayta ishlash korxonalarining veterinariya sanitariyasi
	Baliq so'yish sexida bo'lishi shart asosiy va yordamchi binolar. Binolarni yuvish va dezinfektsiyalash tartibi. Baliq go'shtini qayta ishlash korxonalarida dezifektsiyalash. Sovutkichlarda mog'or zamburug'lariga qarshi kurashda

	2. www.vetjurnal.uz 3. www.veterinariy.actavis 4. www.wikipediya.org 5. www.aquafish.uz
7	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 -avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.
8	Fan/modul uchun ma'sullar: F.E.Kurbanov – SamDVMCHBU, “Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrası assistenti, veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD).
9	Taqrizchilar: 1.M.A.Yuldashov – Toshkent davlat universiteti Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası professori, b.f.d. 2.M. Allamurodova – Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.

	dezinfektsiyalash usullarini qo'llash bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
4	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6	<p>IX. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbaalari</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. A.S.Daminov, Sh.N.Nasimov, V.A.Gerasimchik, S.B.Eshburiev, F.I.Qurbonov "Baliq kasalliklari" O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent. 2020 yil.</p> <p>2. Haqberdiyev P.S., Qurbonov F.I. "Baliq va asalari kasalliklari". O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent. 2016 yil.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>7.B.A. Герасимчик, Е.Ф. Садовникова "Болезни рыб и пчел" Учебное пособие. Минск, 2017 год.</p> <p>8. Н.А. Головина и другие "Ихтиопатология". Учебник, Издательство "Мир" 2003 год.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>1. www.Ziynet.uz</p>

ishlatiladigan kimyoviy va fizikaviy dezinfektsiya vositalari.
<p style="text-align: center;">10-modul. Baliqchilik chiqindilari bilan ishlashda veterinariya – sanitariya chora tadbirlari</p> <p style="text-align: center;">14-15- mavzu. Baliqchilik chiqindilari bilan ishlashda veterinariya – sanitariya chora tadbirlari</p> <p>Baliqchilik chiqindilarining turlari va ular orqali tarqaladigan yuqumli kasalliklar haqida tushuncha. Baliq uni zavodida hom ashyoni tayyorlash va nazorati.Baliq unini ishlab chiqarishga bo'lgan veterinariya – sanitariya talablari. Baliqchilik chiqindilarini va baliqlar jasadlarini baliq uni ishlab chiqarish zavodlarida qayta ishlash yo'li bilan zararsizlantirish. Baliq uni zavodida ishlatiladigan dezinfektsion vositalar. Baliq chiqindilarini yoqib yuborish usullari. Bekker quduqlarining qurilishiga bo'lgan veterinariya –sanitariya talablari, baliq chiqindilarini maxsus quduqlarda biotermik zararsizlantirish tartibi va uning ahamiyati.</p> <p style="text-align: center;">III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p style="text-align: center;">III.1.Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Veterinariya-sanitariya tadbirlarini bajarishda texnika xavfsizligi va ishlab chiqarishda shaxsiy gigiyena qoidalari. 2. Dezinfektsiya vositalarining tarkibi. 3. Dezinfektsiya vositalarining tarkibidagi faol moddalarni aniqlash. 4. Veterinariya-sanitariya texnikalari bilan ishlash qoidalari. 5. Dezinfektsiya o'tkazish va uning sifatini aniqlash. 6. Ektoparazitlar qarshi kurash vositalarining veterinariya amaliyotida qo'llanilishi. 7. Gelmintlarga qarshi kurash vositalarining veterinariya amaliyotida qo'llanilishi. 8. Kemiruvchilarga qarshi zaharli xo'raklarni tayyorlash, deratizatsiya vositalarini qo'llashda ishlash qoidalari 9. Baliq go'shtini qayta ishlash korxonalarida dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari 10. Baliq chiqindilarini qayta ishlash korxonalarida dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari 11. Transport vositalarini veterinariya-sanitariya baholashi, ularni zararsizlantirish va dezinfektsiyalash tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari 12. Baliq xom ashyolarini tekshirish va dezinfektsiyalash usullari 13. Baliqlarning virusli kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari o'tkazish 14. Baliqlarning baktirial kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari o'tkazish 15. Baliqlarning zamburug'li kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari o'tkazish

16. Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
17. Baliqlarning parazitlar kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
18. Baliqlarning mikologik kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
19. Sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash va zararsizlantirish usullari
20. Baliqchilik havzalarini zararsizlantirish.
21. Baliq mahsulotlarini tashishda transport veterinariya – sanitariyasi
22. Baliqchilikka mansub xom ashyolarni olish va qayta ishlashning veterinariya – sanitariyasi.
23. Baliqchilik havzalarida suv muhitini buzuvchi biologik omillar.
24. Baliqchilik havzalarida suv muhitini buzuvchi kimyoviy omillar.
25. Chavoqlarni parvarishlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari.
26. Katta baliqlarni yetishtirishda veterinariya sanitariya tadbirlari.
27. Ozuqa ombori va tayyorlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari.
28. Baliqlar eksport va import jarayonlarining veterinariya sanitariyasi.
29. Baliq mahsulotlarini eksport va import jarayonlarining veterinariya sanitariyasi.
30. Baliqchilikda zamonaviy texnik vositalarni joriy qilish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda magistrlar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarda tajribalarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruha bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Virusli gemorragik septisimiya kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
2. Qizamiq (krasnuxa) kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
3. Bronxiomikoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
4. Suv havzalari dezinfektsiyasini o'tkazishda dezinfektsion vositalardan foydalanish
5. Baliqchilik xo'jaliklarida ishlatiladigan texnik vosita va buyumlarni veterinariya sanitariyasi
6. Nefromikoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
7. Ixtiosporidioz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
8. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni eksport qilish qoidalari.
9. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni import qilish qoidalari.
10. Aeromonoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
11. Saprolegnioz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
12. Legulyoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari

13. Botreotsefallyoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
14. Difillobotrioz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
15. Opisthorxoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
16. Dioktofimoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
17. Kostioz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
18. Xillodenillyoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
19. Ixtiofitrioz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
20. Girodaktilyoz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
21. Daktilogiroz kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
22. Krustasenez kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
23. Suv havzalarining veterinariya - sanitariyasi tadbirlari
24. Chavoqlarni parvarishlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari
25. Tayyor ozuqalarni saqlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari
26. Baliqchilikda ishlatiladigan ov qurol - aslahalarini veterinariya sanitariya tadbirlari
27. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni eksport qilishga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablar
28. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni import qilishga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha "Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va veterinariya va baliqchilikdagi amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish bajarishlari, bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganishi, hamda internet saytlaridan foydalanishi, referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlashi, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir vazifalarni bajarishi, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlashi tavsiya etiladi.

3 VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Magistr bilishi kerak:

- baliqchilik ob'yektlari, baliqchilik mahsulotlari va xom ashyolarini tayyorlash va qayta ishlash korxonalarida dezinfektsiya, dezinseksiya, dezinvasiya va deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishining ahamiyati haqida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*
- veterinariya sanitariya texnikalari va ularning ishlatilishini, baliqchilikda bo'g'imoyoqlilar (ektoparazitlar va boshqa.) va gelmintlarga qarshi dezinfektsiya o'tkazish usullarini, zararkunandalarga qarshi kurash chora – tadbirlarini, baliq go'shtini qayta ishlash korxonalari va dezinfektsiyalash usullarini *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)*
- baliqchilikka mansub xom ashyolar va chiqindilarini qayta ishlashning veterinariya – sanitariyasi haqida, havza suvlarini zararsizlantirish va